

## **“QAYTA QURISH” YILLARIDA OZBEKISTONDAGI IJTIMOIY SIYOSIY VAZIYAT.**

*TDIU, Buxgalteriya hisobi*

*fakulteti talabasi Keldibekova Munisa*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda 1985-1991 yillarda SSSR da boshlangan “Qayta qurish” siyosati va bu davrda O’zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar, tarixiy voqealar tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur jarayonlarning mahalliy jamiyat ongiga, davlat boshqaruv tizimiga va ijtimoiy qatlamlar o’rtasidagi munosabatlarga ta’siri o’rganiladi.

**Kalit so’zlar:** Mixail Gorbachyov, Sovet Ittifoqi, paxta ishi, qayta qurish, mustaqillik harakati, glasnost, perestroika, orol fojiyasi.

**Abstract.** This thesis analyzes the "Perestroika" policy that began in the USSR in 1985-1991, socio-political changes and historical events in Uzbekistan during this period. The impact of these processes on the consciousness of local society, the state administration system, and relations between social strata is also studied.

**Keywords:** Mikhail Gorbachev, Soviet Union, cotton business, perestroika, independence movement, glasnost, perestroika, The Aral Sea tragedy

### **Kirish**

Tarixda shunday davrlar bo‘ladiki, ularning ta’siri faqat siyosiy qarorlar bilan cheklanmaydi, balki butun bir jamiyatning dunyoqarashi, hayot tarzi va orzulari tubdan o’zgaradi. 1985-yilda Mixail Gorbachyov Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi rahbarligiga kelganida, bu ilk qarashda navbatdagi siyosiy almashtirishdek tuyulgan edi. Biroq, aynan o’sha yili uning Sovet Ittifoqi Prezidenti etib saylanishi bilan boshlangan "Qayta qurish" siyosati keyinchalik butun ittifoq hududida, jumladan O’zbekistonda ham keng ko’lamli o’zgarishlarga sabab bo‘ldi.





## **Asosiy qism**

Gorbachyov boshchiligidagi "qayta qurish"ning asosiy maqsadi iqtisodiy tizimni yangilash, siyosiy erkinlikni kengaytirish va jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish edi. Bu siyosat, ayni vaqtida, Sovet Ittifoqidagi boshqaruv tizimining markazlashtirilgan xususiyatlarini kamaytirishga ham qaratilgan edi. Gorbachyov "qayta qurish"ni amalga oshirish uchun "glasnost" (ochiqlik) va "perestroika" (qayta qurish) siyosatlarini ilgari surib, "Glasnosta demokratlashuv ham, xalqning siyosiy ijodi ham mumkin emas", deya urg'ulagan. U 1988-yili Toshkentga qilgan safari davomida esa: "Perestroika faqat keng demokratik muhitda samarali bo'lishi mumkin...", deya qayta qurishning ma'naviy asosini ko'rsatgan.

Perestroika iqtisodiy islohotlar bilan bog'liq bo'lib, davlat iqtisodiy tizimini bozor tamoyillari asosida qayta tashkil etishga qaratildi. Bu islohotlar Sovet Ittifoqi iqtisodiyotining samaradorligini oshirish, resurslarni oqilonan taqsimlash va yangi iqtisodiy tizimlarga o'tishni ta'minlashni ko'zda tutgan edi. Glasnost esa siyosiy ochiqlik va erkinlikni anglatib, matbuot erkinligi, fuqarolarning fikr bildirish huquqi va korrupsiyaga qarshi ochiq kurash imkoniyatlarini yaratdi.

Mazkur siyosatlarning ta'siri O'zbekistonda ham sezildi. Qayta qurish siyosatining amaliyotga tadbiq etilishi O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jon kiritdi, jamiyat uyg'onish kayfiyati yuzaga keldi. Insonlarda milliy g'urur va tarixiy xotiraga qiziqish ortdi, uzoq yillar bosim ostida bo'lган ijtimoiy qatlamlar asta-sekin o'z ovozini topa boshladı. Milliy o'zlik ustiga tashlangan mafkuraviy parda ko'tarilib, xalq o'z tarixiy ildizlariga yangicha nigoh bilan qaray boshladı. 1980-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekistonda yuz bergen ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar xalq ongida chuqur aks-sado berdi. Ayniqsa milliy o'zlikni anglash tuyg'usining kuchayishi, tarixiy adolatga bo'lgan intilish va madaniy merosga qiziqishning ortishi jamiyatda ijtimoiy faollikning sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ldi. Oddiy fuqaro ham, ziyoli qatlam ham o'z fikrini aytishga, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga intila boshladı. Markaziy Osiyo



tarixshunosi Adeeb Khalid bu bosqichni “milliy identitet va tarixiy xotiraning qayta uyg‘onishi” deb ataydi. U qayta qurish “mahalliy jamiyatlarga o‘z tarixini yangicha talqin qilish va uni siyosiy dasturga aylantirish imkonini berdi”, deya izohlaydi. Ayniqsa, ziyyolilar, adabiyot va san’at vakillari, ilmiy muassasalar xodimlari orasida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy ildizlarga qaytish vaadolatni tiklash g‘oyalari keng yoyildi. Ular ijtimoiy ong shakllanishida muhim rol o‘ynab, milliy g‘ururni oshirishga xizmat qildilar. Gorbachyovning "glasnost" siyosati respublikalarda, xususan O‘zbekistonda, ilgari ochiq gapirilmagan muammolarni muhokama qilishga imkon yaratdi. Shu bilan birga, qayta qurish islohotlari orqali milliy g‘oyalar va mustaqillikka bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi. Bu esa O‘zbekiston mustaqillikka intilishining boshlanishiga turtki berdi.

Shu davrda Sovet markaziy hukumatining qattiq nazorat ostidagi iqtisodiy siyosati O‘zbekiston hayotida salbiy iz qoldirdi. Respublika asosan paxta xomashyosi yetishtiruvchi hudud sifatida shakllantirilgan bo‘lib, bu holat iqtisodiy biryoqlamalik, ekologik muammolar va ijtimoiy tengsizliklarga olib keldi. Paxta yetishtirish yildan yilga majburiy mehnat, statistik ma'lumotlarni soxtalashtirish va tabiiy resurslardan nooqilonan foydalanish bilan bog‘lanib bordi. Natijada, Orol dengizining qurishi kabi ekologik fojialar yuz berdi.

1983–1989-yillarda boshlangan va “paxta ishi” nomi bilan tarixda qolgan kampaniya O‘zbekistondagi minglab rahbar kadrlarning qamalgani, jamoatchilik oldida kamsitilgani bilan yakun topdi. Moskva matbuoti bu jarayonni faqat korrupsiyaga qarshi kurash sifatida yoritdi. Ammo aslida, bu siyosiy bosim edi. Islom Karimov bu borada shunday deydi: “Paxta ishi bahonasida butun bir xalqni poraxo’rlikda ayblash-bu millat g‘ururini tahqirlash edi. Bu adolatsizlik xalqda norozilk tuyg‘usini kuchaytirdi, mustaqillik g‘oyasiga nisbatan ishonch uyg‘otdi”.

Qayta qurish sharoitida xalq ushbu kamsitishlarga javoban o‘zini oqlash, o‘z tarixini va qadriyatlarini qayta anglash zaruratini his qildi. Ayniqsa, ziyyolilar



va yoshlar orasida bu voqealar milliy g‘ururni uyg‘otdi. Jamiyatda “markaz” siyosatiga nisbatan tanqidiy qarashlar paydo bo‘ldi. Bu holat, o‘z navbatida, “Birlik” kabi milliy-demokratik harakatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Islom Karimov qayta qurish siyosatini dastlab ijobjiy baholagan bo‘lsa-da, keyinchalik Moskvaning ikkiyuzlamachiligin shunday tanqid qilgan edi: “Perestroika jarayoni ko‘proq shovqin va shiorlar bilan olib borildi. Amalda esa, respublikalar o‘z huquqlarini talab qilganida, markaz eskicha buyruqbozlikdan voz kechmadi”

### **Xulosa**

Paxta siyosati va unga nisbatan yuritilgan repressiv siyosat xalqda tarixiy adolat istagini kuchaytirdi. O‘zbekistonda milliy mustaqillikka intilish aynan mana shu ijtimoiy-siyosiy bosimlar va milliy uyg‘onish to‘lqinlari natijasida shakllandi. 1991-yilga kelib bu tarixiy jarayon o‘z mantig‘iy yakuniga yetdi — O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini e’lon qildi.

Qayta qurish davri O‘zbekistonda siyosiy faollik va ijtimoiy ongning oshishiga zamin yaratdi. Markaziy siyosatga tanqidiy munosabat, milliy o‘zlikni anglash va tarixiyadolatni tiklashga intilish kuchaydi. Bu jarayonlar mustaqillik sari yo‘l ochib, xalq tafakkurida yangilanish bosqichini boshlab berdi. Eng muhim, bu davr xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilashga haqli ekanini chuqr anglatdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Горбачёв М.С. Перестройка и новое мышление для нашей страны и для всего мира. – М.: Новости, 1987. – 254 с.
2. Горбачёв М.С. Слово о свободе: Речи и статьи. – М.: Политиздат, 1989. – 320 с.
3. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. – Ithaca: Cornell University Press, 2015. – 440 p.



**Ilim fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va  
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**

4. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 370 p.
5. Каримов, И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида / И. А. Каримов. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 360 б.

